**Raxmatova Shaxnoza Shukurovna**

Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada buxgalteriya axborotining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining hisobini yuritish va tahlil qilishda tutgan o'rni hamda undan foydalanuvchilarning samarali qarorlar qabul qilishdagi ahamiyati haqida so'z boradi. Yuqori tezlik bilan o'zgarib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga muvofiq buxgalteriya axboroti ta'minotiga ega bo'lishining ahamiyati beqiyos. Aynan buxgalteriya axborotining yuqori sifatda bo'lishi uning foydalilik darajasini oshiradi, shu sababdan buxgalteriya axborotining sifat tavsiflari ushbu ilmiy tadqiqot ishining obyekti hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, mazkur ilmiy maqolaning dolzarbligini belgilaydi. "Buxgalteriya axborotining sifati" tushunchasi uni ko'rib chiqish doirasidan kelib chiqqan holda, turli xil talqin qilinadi. Shu sababli bu tushunchaning har xil sharhlari mavjud. Biroq yondashuvlarning turli ekanligiga qaramay, buxgalteriya axboroti sifati doimo xolis, ishonchli va xo'jalik yurituvchi subyektning xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan jarayonlar va hodislarni to'liq aks ettirishi lozim, chunki u xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga beriladigan bahoga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

Buxgalteriya axborotining sifatiga qo'yiladigan talab, aslida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotlariga hamda ulardagi axborotning turli foydalanuvchilar qaroriga ta'sir qiluvchi asosiy tavsiflariga qo'yiladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Maqolada buxgalteriya axboroti asosida foydalanuvchilarning samarali qarorlar qabul qilishini ta'minlash maqsadida, buxgalteriya axborotining shakllanish uslublarini yaxshilash hamda ularning sifatiga qo'yilgan talablar ko'rib chiqilgan bo'lib, ularni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar keltirilgan. Shuningdek, buxgalteriya axborotining zamonaviy boshqaruv tizimining talablariga muvofiq moslashuvi bo'yicha "buxgalteriya axborotining sifati", "sifat mezonlari" va "sifat darajasi" tushunchalari yoritib berilgan. Ilmiy izlanishlar jarayonida samarali qarorlar qabul qilish uchun har qanday foydalanuvchilarga buxgalteriya axborotini foydali bo'lishiga ta'sir qiluvchi buxgalteriya axboroti sifat tavsiflarini muayyan, bir-biriga bog'langan holda tizimlashtirilib qo'llanilishi kerakligi isbotlangan. Shuning evaziga buxgalteriya axboroti sifatining o'zaro bog'langan va o'zaro qaram bo'lgan tavsiflari bir tizimga keltirilib, xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** buxgalteriya axboroti, tahlil, buxgalteriya hisobi, buxgalter, hisob registrlari, buxgalteriya axboroti sifat tavsifi, moliyaviy hisobotlar, xo'jalik yurituvchi subyekt, samarali boshqaruv qarorlari, foydalanuvchilar, moliyaviy holat.

**Abstract:** This article is about the role of accounting information in accounting and analysis of the activities of business entities and its importance for users in making effective decisions. In the conditions of the market economy, which is changing at a high speed, the importance of having the supply of accounting information in accordance with the successful operation of the economic entity is significant. The high quality of accounting information makes increase its level of usefulness, that is why, the qualitative characteristics of accounting information are the object of this scientific research work. This determines the relevance of this scientific article. The concept of "quality of accounting information" is interpreted differently depending on the shape of its consideration. Therefore, there are different interpretations of this concept. However, despite the different approaches, the quality of accounting information should always be objective, reliable and fully reflect the processes and events that occurred in the economic activity of the economic entity, because it directly affects the assessment of the financial position of the economic entity.

It is no exaggeration to say that the demand for the quality of accounting information is actually placed on the financial statements of the economic entity and on the main characteristics of the information in them that influence the decisions of various users of accounting information.

In order to ensure that users make effective decisions on the basis of accounting information, the article examines the requirements for the improvement of accounting information formation methods and their qualitative characteristics, and measures for their improvement are presented. Also, the concepts of "quality of accounting information", "quality criteria" and "quality level" are based on the adaptation of accounting information according to the requirements of the modern management system. In the process of scientific research, it has been proved that for effective decision-making, it is necessary to systematize and apply the quality characteristics of accounting information that affect the usefulness of accounting information to any users. Therefore, interrelated and interdependent characteristics of the quality of accounting information are brought into one system and conclusions are given.

**Key words:** accounting information, analysis, accounting, accountant, account registers, quality description of accounting information, financial statements, economic entity, effective management decisions, users, financial position.



**Аннотация:** Данная статья раскрывает роль и значение бухгалтерской информации в учете и анализе деятельности субъектов хозяйствования а также для ее пользователей в принятии эффективных экономических решений. В условиях рыночной экономики, которая меняется с большой скоростью, важность наличия бухгалтерской информации в соответствии с успешной деятельностью экономического субъекта неоспорима. Именно высокое качество бухгалтерской информации повышает уровень ее полезности и потому качественные характеристики бухгалтерской информации являются объектом данной научно-исследовательской работы. Это, в свою очередь, определяет актуальность данной статьи. Понятие “качество бухгалтерской информации” трактуется по-разному в зависимости от сферы ее рассмотрения. Поэтому существуют разные трактовки этого понятия. Однако, несмотря на разные подходы, качество бухгалтерской информации всегда должно быть объективным, достоверным и в полной мере отражать процессы и события, происходящие в хозяйственной деятельности экономического субъекта, поскольку оно напрямую влияет на оценку финансового состояния экономического субъекта.

В свою очередь, требования к качеству бухгалтерской информации фактически предъявляются к финансовой отчетности экономического субъекта и к основным характеристикам содержащейся в ней информации, влияющим на решения различных пользователей.

В целях обеспечения принятия пользователями эффективных решений на основе бухгалтерской информации в статье рассмотрены требования к совершенствованию методов формирования бухгалтерской информации и ее качества, а также представлены меры по их совершенствованию. Также разъяснены понятия “качество бухгалтерской информации”, “критерии качества” и “уровень качества” в части адаптации бухгалтерской информации в соответствии с требованиями современной системы управления. В процессе научных исследований доказано, что для эффективного принятия решений необходимо систематизировать и применять качественные характеристики бухгалтерской информации, которые влияют на ее полезность для любых пользователей. Таким образом, взаимосвязанные и взаимообусловленные характеристики качества учетной информации сводятся в одну систему и даются выводы.

**Ключевые слова:** бухгалтерская информация, анализ, бухгалтерский учет, бухгалтер, регистры учета, качественная характеристика бухгалтерской информации, финансовая отчетность, хозяйствующий субъект, эффективные управленческие решения, пользователи, финансовое состояние.

## KIRISH

Hozirgi kunda buxgalteriya axboroti xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining boshqaruv jarayonini amalga oshirish uchun bebaho manba bo'lishiga sabab u doimo rejalashtirish, tashkil etish, rivojlantirish va nazorat kabi barcha boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati, moddiy va moliyaviy resurslarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilishning iqtisodiy jarayonlarini o'zida mujassamlashtirgan axborot – bu iqtisodiy axborot bo'lsa, buxgalteriya axboroti esa ushbu xo'jalik yurituvchi subyektni boshqarishda vosita bo'lish bilan birgalikda xo'jalik faoliyati haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish va taqdim qilish usuli desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayni vaqtda buxgalteriya axboroti xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati uchun mavjud imkoniyatlardan o'z vaqtida foydalanish va faoliyatni istiqbolli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda asosiy rolni o'ynaydi.

Aynan buxgalteriya axboroti yuqori sifatda tuzilib, taqdim qilingan taqdirda, u ham ichki, ham tashqi foydalanuvchilari uchun foydali va qiymatli bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, buxgalteriya axborotining sifat tavsifiga bo'lgan talab doimiy tarzda ortib boradi. Shuni ta'kidlash lozimki, buxgalteriya axborotining sifat tavsifi ko'p xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarining obyekt bo'lganligiga qaramay, buxgalteriya axboroti sifati va sifat mezonlari chuqur o'rganilmagan. Aynan shu sabab, ushbu ilmiy maqolaning mavzusi va ilmiy izlanish maqsadiga aylandi. Maqolaning maqsadi sifatida “buxgalteriya axboroti sifati” tushunchasiga mualliflik ta'rifini berilganligi hamda buxgalteriya axborotining o'zaro aloqador sifat tavsiflarining bir tizimga shakllantirilgan va undan foydalanishning samaralari keltirilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Buxgalteriya axboroti va uning sifatining ahamiyati bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda, mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning asarlarida qayd etilgan. Xususan, “Moliyaviy hisobotlarini taqdim etish” nomli 1-son buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga (BHXS)ga muvofiq, kapitalni boshqarish jarayonida korxonalar o'z maqsadlariga erishish uchun moliyaviy hisobotda sifatli axborotni ta'minlash kerak.

Rus iqtisodchi olimlari M. V. Koryagin va P. A. Kutsyiklarni fikricha buxgalteriya axboroti manfaatdor foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, ularni taqdim qilishning qadimdan shakllanib kelgan hamda me'yoriy belgilangan talablari mavjuddir.

L. A. Yudinseva ham buxgalteriya axborotiga bo'lgan ehtiyojni quyidagicha ta'riflagan: foydalanuvchilarni ularning iqtisodiy asosga ega qarorlar qabul qilishida muhim ahamiyat kasb etadi, bunda buxgalteriya axborotini sifati unga bo'lgan ehtiyojni qondirish darajasi bilan aniqlanadi.



G'arblik iqtisodchi olim B. Pounder (B. Pounder)ning ta'kidlashicha buxgalteriya hisobining ahamiyati u taqdim qilayotgan axborot bilan o'lchanadi.

S. A. Levitskaya va K. A. Ivashenkolarning qayd qilishicha, buxgalteriya axboroti – bu xo'jalik obyektlarini tahlil qilish, baholash, ro'yxatga olish va umumlashirish jarayonlari bo'yicha tegishli birlamchi hujjatlar, registrlar va hisobot shakllari bilan tasdiqlangan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari yig'indisidir.

Yevropalik iqtisodchi olimlar N. Ortega va X. Ramires ta'kidlashlaricha, buxgalteriya axborotining ahamiyati uni tashkilot faoliyatining samaradorligi bilan aniqlanadi [7].

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan Z. Zufarova va A. Avlokulovlarning ta'kidlashicha, buxgalteriya axborotini Bizning fikrimizcha, buxgalteriya axborotining sifati – undan foydalanuvchilarning manfaatlari va ehtiyojlarining qondirilishi bilan belgilanadi.

Buxgalteriya axborotining sifat mezonlari, bunday axborotdan foydalanuvchilarning to'g'ridan-to'g'ri maqsadiga bog'liqligi shuni anglatadiki, ma'lum bir iqtisodiy vaziyatlar tufayli yuzaga kelgan talablarga buxgalteriya axborotining to'g'ri kelishi uchun uning barcha sifat tavsiflaridan ustuvorlarini ajralib chiqishiga sabab bo'ladi, bu esa bunday axborotning foydalilik darajasini keskin oshiradi. Buxgalteriya axborotining hozirda mavjud sifat tavsiflari ularni takomillashtirishni, tizimlashtirishni taqozo etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni olib borishda buxgalteriya axborotining buxgalteriya hisobi va tahlil tizimidagi beqiyos o'rni va ahamiyati borasidagi iqtisodchi –olimlarning fikr-mulohazalarini o'rganish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish hamda iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif izlanish va tajribalari bilan qiyosiy tahlil qilish yo'li orqali tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda buxgalteriya axboroti uning asosida foydalanuvchilar tomonidan samarali qarorlarini qabul qilinishda beqiyos ahamiyatga ega.

Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatini doimiy tarzda maqsadli monitoring qilishi, muammolarni oldindan ko'ra olishi va bartaraf etish hamda strategik va operativ boshqaruvning moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarini aniqlashi va baholashi uning faoliyatini moliyaviy barqarorlikka erishishini osonlashtiradi. Bu esa o'z navbatida buxgalteriya axborotining sifatli bo'lishini taqozo qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, buxgalteriya axboroti – bu boshlang'ich hisob hujjatlariga asoslangan, buxgalteriya hisobi registrlarida, moliyaviy hisobotlarda, tushuntirishlarda hamda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bilan bog'liq boshqa hujjatlarda aks ettiriladigan buxgalteriya hisobi obyektlari haqidagi qayta ishlangan ma'lumotlar hisoblanadi [1]. Buxgalteriya axboroti – boshlang'ich hisob hujjatlarida aks etgan xo'jalik muomilalari va jarayonlarini hisob-kitobini yuritish maqsadida shakllantiriladi, guruhlanadi, tizimlashtiriladi hamda qayta ishlanadi. O'z navbatida buxgalteriya axboroti buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari hamda buxgalteriya hisobi metodining asosiy elementlari orqali shakllantiriladi (1-jadval).

1-jadval: Buxgalteriya axborotining shakllanishi roli<sup>1</sup>

Shakllantirish usuli	Maqsad	Buxgalteriya axborotini shakllantirishdagi ahamiyati
Hujjatlashtirish	Xo'jalik jarayonlarini hujjatlashtirish	Buxgalteriya hisobi obyektlarini birlamchi kuzatuv orqali buxgalteriya axborotini shakllantirish – buxgalteriya axborotini yuqori darajadagi batafsilligi, joriy qarorlarni qabul qilishga yo'naltirilgan.
Inventarizatsiya	Mol-mulk va majburiyatlarning haqiqatda mavjudligi tekshirish hamda olingan ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtiruv.	Buxgalteriya axboroti hisob obyektlarini qiymat o'lchovida shakllanadi. Turli xil axborot oqimini yagona jamlanma hisobot ko'rinishida jamlaydi.
Baholash	Mol-mulk va majburiyatlarni turli xil o'lchov birliklaridan yagona o'lchov birligida aks ettirish	Buxgalteriya axboroti buxgalteriya hisobi obyektlari bo'yicha ma'lumotlarni joriy guruhlash orqali shakllanadi. Hisobvaraqlar, sub hisobvaraqlar ko'lamida buxgalteriya axborotini to'planishi
Kalkulyatsiya	Ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini hisoblash.	
Hisobvaraqlar	Buxgalteriya hisobi obyektlarini iqtisodiy mazmunining bir xilligi asosida guruhlash.	
Ikki yoqlama yozuv	Buxgalteriya hisobi obyektlari, xo'jalik muomillarining o'zaro bog'liqligini iqqita hisobda aks ettirish.	

1 Ilmiy izlanishlar asosida muallif tomonidan ishlangan



Umumlashtirish	Tashkilotning xo'jalik vositalarini (turlari, joylashuvi, shakllanish manbalari va ishlatish maqsadi bo'yicha) pul o'lchov birligida guruhlash va umumlashtirish	Buxgalteriya axboroti tashkilotning mol-mulki va moliyaviy holati bo'yicha ma'lumotlarni davriy umumlashtirish orqali shakllanadi. Tashkilot miqyosida yig'ilgan buxgalteriya axboroti tashqi va ichki foydalanuvchilarga yo'naltirilgan.
Moliyaviy hisobot	Ma'lum davr uchun tashkilotning mol-mulki holati hamda moliyaviy natijalari to'g'risida ma'lumotlarni yagona tizimini yaratish.	

Yuqorida keltirilgan jadvalda buxgalteriya axborotini shakllantirish instrumentlari o'z aksini topgan bo'lib, ular to'g'ridan-to'g'ri uning sifatiga ta'sir o'tkazadi. Aynan buxgalteriya axborotining sifati haqida so'z borganda, undan foydalanuvchining ko'zlagan maqsadlariga erishishi uchun axborotni foydali qiluvchi xususiyatlarini tushunish mumkin, boshqacha qilib aytganda, buxgalteriya axborotining sifati undan ko'zlangan natija bilan belgilanadi. Bu esa o'z o'rnida bunday axborot, foydalanuvchi iqtisodiy qarorlarining samaradorligiga bevosita o'zining sifat xossalari bilan ta'sir qilishini anglatadi. Shu sababli, yillik moliyaviy hisobotlarda keltirilayotgan hamda foydalanuvchiga taqdim qilinayotgan buxgalteriya axboroti quyidagi 1-rasm keltirilgan sifat tavsiflariga ega bo'lishi lozim deb hisoblaymiz.

Bu keltirilgan rasmda berilgan buxgalteriya axborotining tizimlashtirilgan asosiy sifat tavsiflariga izoh berib o'tamiz:

**Dolzarblik (relevance):** Buxgalteriya axborotining bu sifat xususiyati ma'lum masala bo'yicha foydalanuvchiga aniq asosli qarorlarni qabul qilishida noaniqliklarni bartaraf qilishda yoki ma'lum bir darajada bilim saviyasini oshirishga ko'maklashadi. Misol tariqasida, xo'jalik yurituvchi subyektga kredit ajratish maqsadida tijorat bankining kredit bo'limi hodimi tomonidan mazkur subyekt moliyaviy holati va faoliyatining moliyaviy natijalarini o'rganish va tahlil qilishda u taqdim etgan moliyaviy hisobotlar hamda kredit tarixi o'rganilib chiqiladi. Bu bilan ushbu subyektning qancha miqdorda kreditga qobiliyatligi darajasi aniqlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, buxgalteriya axborotining dolzarbligini undan foydalanuvchiga o'z vaqtdan va resurslaridan ratsional foydalanishiga imkoniyatini beradi.

Buxgalteriya axborotining dolzarblik darajasi birinchi navbatda, uni tabiatidan, hajmidan va albatta, o'rinni ekanligi bilan aniqlanadi. Demak, agar mazkur axborot qandaydur bo'shliqlarga ega bo'lsa yoxud noto'g'ri talqin qilingan bo'lsa, albatta, u asosida qabul qilingan qarorlar salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ba'zi holatlarda moliyaviy hisobotlardagi buxgalteriya axborotining tabiatining o'zi ushbu axborotdan foydalanuvchiga uni sifat darajasini aniqlab beradi. Ammo shunday bo'lsa-da, uni tabiati bilan birgalikda hajmi ham ushbu axborotning dolzarbligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatdan daromadining xarajatlariga nisbatan kamomadi, xorijiy valyutada qarzdorlikning mavjudligi va uning miqdori va h.k.

Axborot dolzarb bo'lishi uchun bir quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

**O'z vaqtidalik (timeliness):** Buxgalteriya axboroti foydalanuvchilarga zarur bo'lgan paytda taqdim qilinishi lozim, aks holda albatta, axborot o'z dolzarbligini yo'qotadi. Axborotning yangiligi, uni foydalilik darajasini aniqlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Axborot o'zida mujassam etilgan tafsilotlar sodir bo'lgan vaqtga nisbatan eski bo'lmasligi lozim, bu ham uning muhimlik darajasiga ta'sir qiladi. Masalan, xodim mol yetkazib beruvchidan xo'jalik jihozlarning kunlik xarid qilish to'g'risidagi qarorni, ushbu jihozlarning holati to'g'risidagi hisobotga tayanadi, bu esa hisobotda oxirgi yangi axborot aks etishini talab qiladi.

Oldindan ko'ra olish, bashoratlash (predictive value): bu o'z o'rnida foydalanuvchilarga kelajak uchun prognozlar qilish imkoniyatini yaratadi.


**Qayta aloqaning mavjudligi:** buxgalteriya axborotining bunday xususiyati foydalanuvchilarga oldingi taxminlarini baholashga yordam beradi, shu bilan birga o'shaning evaziga qabul qilingan qarorlarning samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Buxgalteriya axborotining bashoratlash qiymati va qayta aloqaning mavjudligi, uning asosida qaror qabul qiluvchi foydalanuvchilarga holatni oldindan ko'ra bilish, qarorlarni tasdiqlash va to'g'rilashga zamin yaratadi. Misol tariqasida, chakana savdo sotuvchisi o'z tovarlari zaxirasi muqimlashtirish uchun oldingi sotuv ko'rsatkichlaridan kelib chiqib sotuv hajmini bashoratlaydi – bu axborotning bashoratlanuvchanlik qiymati bo'lsa, unga asoslangan holda tovarlar zaxirasini doimiy ravishda oqilona to'ldirib boradi, bu albatta, axborotdan qayta aloqaning mavjudligidan darak beradi.

**Ishonchilik:** Buxgalteriya axboroti hech qanday xatolarsiz, kamchiliksizlarsiz ishonchli va haqiqiy bo'lishi kerak. Buxgalteriya axboroti o'z taqdim qilgan tafsilotlarni sodir bo'lgan jarayonlarga muvofiqligini ta'minlashi lozim. Xato kamchiliklarsiz bo'lgan ishonchli buxgalteriya axboroti sodir bo'lgan voqea – hodisalarni aniq tasvirlaydi. Foydalanuvchi uchun axborotning qiymatligi uning ishonchiligi bilan belgilanadi. Ishonchsiz axborot yaxshi holda vaqt sarfi bo'lsa yomon holda noto'g'ri samarasiz qarorlar qabul qilishdek oqibatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, sotuv menedjeri xaridor bilan katta hajmda mahsulot sotish bo'yicha ma'lum sanaga shartnoma



imzoladi. U bu qarorni mahsulot zaxirasi to'g'risida axborotga tayangan holda qabul qilgan bo'lsa-da, ushbu axborot noto'g'ri tafsilotlarga ega bo'lgani mahsulotni haqiqatda inventarizatsiyasi o'tkazilganda ma'lum bo'ldi. Bu esa mahsulotni shartnomaga muvofiq ravishda kelishilgan hajmda yetkazish imkonidan mosuvo qilganligi, shartnoma shartlarini vaqtida bajarmaslik, uni sud muhokamasiga ishning oshirilishi kabi oqibatlarni keltirib chiqardi. O'z o'zidan ko'rinib turibdiki, bu salbiy oqibatlarining kelib chiqishi sababi faqat axborotning xatoligi bo'lgan. Bundan xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, samarali qarorlar yuqori darajadagi ishonchli axborotni talab qiladi. Ishonchli axborot o'zida quyidagi tavsiflarni mujassam etishi lozim:

**Betaraflik, xolislik:** buxgalteriya axboroti qandaydur belgilangan aniq maqsad yoki natijaga bog'liq emas, balkim ro'y-rost bo'lishi lozim.



1-rasm: Buxgalteriya axborotining asosiy sifat tavsiflari<sup>2</sup>

2 Ilmiy izlanishlar asosida muallif tomonidan ishlangan.



**Tekshiriluvchanlik:** bu buxgalteriya axborotini xolis va mustaqil o'lchov uslubiga xosligi bo'lib, har qanday holda tekshirishning bir hil usulni qo'llash orqali kim tomondan tekshirilishidan qat'i-nazar bir xil natija berishi bilan izohlanadi.

**Butunlik,** buxgalteriya axborotining sifati hisoblanib, uni uchta tashkil qiluvchi tarkibi mavjud bo'lib, ular – haqiqatda sodir bo'lganligi, aniqlik va to'liqlik kabi sifat tavsiflaridir.

- a) Haqiqatda sodir bo'lganligini boshqacha qilib aytganda, aniq holda taqdim qilinganligi desak mubolag'a bo'lmaydi. Axborotning bu sifati unga bo'lgan ishonch darajasini shartsiz oshiradi. Vaholanki, axborot haqiqatda sodir bo'lgan xo'jalik jarayonlari va muomilalarini aks etishi shart <sup>[6]</sup>. Masalan, buxgalteriya 1 S dasturida haqiqatda sodir bo'lmagan savdo bo'yicha ma'lumot kiritilgan. Bunday ma'lumot fikativ, noto'g'ri shakllantirilgan axborotga sabab bo'ladi va uning asosida qo'yilgan keyingi qadamlarni xato bo'lishiga olib keladi, albatta, oqibatlar salbiy bo'ladi.
- b) **Aniqlik:** buxgalteriya axborotini moddiy xatoliklardan holi bo'lishi kerakligini anglatadi. Ammo moddiy miqdoriy baholashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Chunki, u mutlaq miqdorga ega bo'lmaydi, va albatta, muammolarni keltirib chiqaradi. Bu xatolar foydalanuvchilar qabul qilgan qarorlarning samarasizligiga salmoqli hissa qo'shadi. Bu esa, axborot ba'zi hollarda mutlaq aniq va ravshan bo'lishi lozim ekanligiga dalolat qiladi. Axborotni o'z vaqtida taqdim qilish kerakligi bois, ba'zida uning aniqligiga putur yetadi. Ko'p hollarda mutlaq aniq, to'g'ri axborot tayyorlanishi vaqt talab qilganligi tufayli o'z vaqtida taqdim qilinmasligi ham mumkin, bu esa yana axborotning muhimlik darajasiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Shu sababli axborotni muhimligi va foydaligini saqlash maqsadida qayta ishlovchilar, uning o'z vaqtida tuzilganligi va aniq, to'g'riligi o'rtasida muvozanatni saqlash yo'llarini qidiradi.
- d) **To'liqlik:** moliyaviy hisobotlar xo'jalik yurituvchi subyektning barcha mol-mulki va majburiyatlari haqida to'liq buxgalteriya axborotini aks ettirish kerak <sup>[9]</sup>. Masalani hal qiluvchi axborotning hech bir qismi qoldirilgan bo'lmasligi lozim. Masalan, hisobot, ma'lum davr bo'yicha barcha hisob-kitoblarni aks etishi hamda aniq va to'g'ri taqdim qilingan bo'lishi shart.

**Taqqoslanuvchanlik, qiyoslanuvchanlik.** Buxgalteriya axborotining bu sifat tavsifi, bir xo'jalik yurituvchi subyekt bo'yicha, yoxud shu sohaning bir necha xo'jalik yurituvchi subyektlari kesimida, muayyan davr bo'yicha yoki bir qancha davrlar oralig'i bo'yicha sodir bo'lgan xo'jalik jarayonlari va muomilalarini solishtirish orqali o'xshashliklari, farqlari va ta'sir doiralarini aniqlash imkonini berishini anglatadi. Moliyaviy hisobotdagi buxgalteriya axborotining aniq vaqtida, aniq voqea-hodisalarni aks etgan holda muayyan xo'jalik yurituvchi subyektga taqdim qilinishi uni dolzarbligi va ishonchligi uchun yetarli hisoblanmaydi. Bunda moliyaviy hisobotning foydalanuvchilari istalgan davr oralig'ida xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya axborotini taqqoslash imkoniga ega bo'lishi lozim. Buning uchun foydalanuvchilar o'z vaqtida moliyaviy hisobotni tuzishda kiritilgan o'zgarishlar, qonun-qoidalaridan boxabar qilinishi lozim.

**Muvofiqlik:** Bunda muayyan xo'jalik yurituvchi subyekt yoki bir nechta xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'yicha, ma'lum davr yoki davrlar kesimini taqdim qilingan buxgalteriya axboroti bir-biriga muvofiq bo'lishi, uni taqqoslanuvchanligini belgilaydi. Bu esa o'z navbatida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga, faoliyatining samaradorligiga va ulardagi o'zgarishlarga to'g'ri baho berish imkoniyatini yaratadi.

Buxgalteriya axborotining taqqoslanuvchanligining uning muvofiqligi bilan adashtirmaslik juda muhim, aks holda hisobotni takkomilashtirishda kiritiladigan, qo'llaniladigan yangi uslublariga to'siq bo'lishi mumkin. Chunki, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar ham moliyaviy hisobotni tuzishda bir xil usuldan foydalana olishmaydi, agar bu buxgalteriya axborotining dolzarbligi va ishonchligiga putur yetkazadigan bo'lsa. Ayni vaqtda axborot muvofiqligining o'zi ham bir alohida maqsad bo'la olmaydi, agar moliyaviy hisobotni tuzishda qo'llanilayotgan usuldan ko'ra yanada optimal va ishonchli usul paydo bo'lsa albatta, uni o'zgartirish lozim bo'ladi.

**Tushunarlilik:** Bunda axborot foydalanuvchilarga butun mohiyatni yetkaza olishi lozim. Axborotning tushunarli bo'lish yoki bo'lmasligi uni buxgalterlar tomonidan qanday tayyorlanganligi va foydalanuvchini undan to'g'ri foydalana olishi bilan belgilanadi.

Axborotni dolzarbligi va ishonchligiga zarar bermagan holda tushunarli tuzilgan bo'lishi juda muhim. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, murakkab xo'jalik jarayonlari va muomilalari to'g'risidagi buxgalteriya axborotini oddiy yoki yengillashtirilgan shaklda tuzish imkonini doim ham mavjud bo'lavermaydi. Shuni nazarda tutish kerakki, axborotning foydalanuvchilar doimo u haqida tushuntirishlar, konsultatsiyalar olish imkoniga ega <sup>[6]</sup>. Masalan, axborot tushunarli tilda (masalan, rus, o'zbek, ingliz va x.k) yoki tushunarli texnik (informatika, fizikada ishlatiladigan) tillarda tuzilgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, haddan ziyod kodlar, va qisqarmalarga ega axborot undan foydalanuvchilarga tushunarsiz bo'lishi mumkin.

**Xarajatlar va natijalarning mutanosibliigi:** Moliyaviy hisobotni tuzuvchilar, auditorlar, standartlar va hokazolarni tuzuvchilar duch keladigan doimiy muammo bu buxgalteriya axborotini taqdim qilishga ketgan sarf-xarajatlarga nisbatan undan kutilgan manfaatni (foydani) ustun kelishi hisoblanadi. Axborotning qiymatini uni yig'ilishi, saqlanishi, qidirib topilishi, taqdim qilinishi, tahlili va talqini hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar yoki raqobatbardoshlikning pasayishiga olib kelgan axborotning ishonchsizligi, resurslarni noto'g'ri



taqsimoti va boshqa noxush oqibatlardan hosil bo'lgan xarajatlar kiradi. Axborotning ustunligi uning asosida axborotning turli foydalanuvchi guruhlaridan samarali qarorlar qabul qilishida namoyon bo'ladi.

**Umumlashtirilish:** buxgalteriya axborot foydalanuvchilarning ehtiyojlariga muvofiq holda to'plangan bo'lishi lozim. Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyekt boshqaruvining quyi qismidagi menedjerlar, boshqaruv xodimlari yanada batafsil ma'lumotga ehtiyoj sezadi. Axborot boshqaruvning yuqori qismiga umumlashtirilgan holda uzatilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, buxgalteriya axborotining sifat bir qancha talab-larga javob berishi lozim. U dolzarb, haqqoniy, qiyoslanuvchan, muvofiq hamda tushunarli bo'lishi shart, chunki buxgalteriya axborotining bunday sifatlarini uni ham ichki ham tashqi foydalanuvchilar qabul qiladigan qarorlarni samaradorligini oshirish bilan birga ularni nazoratini, tahlilini natijador qiladi.

Qolaversa, buxgalteriya axborotini batafsil bo'lishi, xo'jalik yurituvchi subyektning samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ahamiyatini keskin oshiradi, ya'ni u:

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishning (masalan, faoliyat turlari bo'yicha alohida buxgalteriya hisobi bo'yicha) amaldagi qonun hujjatlari talabalariga muvofiq bo'lishi;
- buxgalteriya axborotini olish xarajatlarining undan foydalanishdan kutilgan natijalardan past bo'lishi kerakligidan iborat tejamkorlik tamoyilini amalga oshirishi;
- buxgalteriya axborotini sharhlash yo'li bilan tezkor va taktik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni olish zarurati kabilarni qamrab olishi lozim. Shuni alohida ta'kidlash joizki, buxgalteriya axborotini sharhlanishini xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning turli usullarini qo'llash orqali amalga oshirish mumkin. Bu shuni anglatadiki, hisobot davri uchun joriy buxgalteriya axborotini umumlashtirish asosida tuzilgan moliyaviy hisobotda tugallangan xo'jalik jarayonlar to'g'risida sifatli buxgalteriya axborotining aks etishi, unda xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy – xo'jalik faoliyatining hajmi va sifat ko'rsatkichlari to'g'risida yetarlicha to'liq ma'lumot berilganiga dalolat qiladi. Buxgalteriya axborotining sifat tavsiflarini takomillashtirishda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun quyidagi takliflar berildi:
- buxgalteriya axborotini shakllantirish jarayoniga daxldor buxgalter xodimlar xo'jalik jarayonlariga nafaqat texnik balki mantiqan "ijodkorona" ham yondasha olishi uchun malakasini doimiy ravishda oshirib borilishini ta'minlanishi;

O'z vaqtida samarali qarorlar qabul qilish maqsadida buxgalteriya axborotining ustuvor sifat tavsiflariga e'tibor qaratish va ularni tizimlashtirish va ularni doimiy ravishda taqomillashtirish maqsadga muvofiq.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2016-yil 13-apreldagi O'RQ 404-sonli "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.
2. International standard of accounting №1. Presentation of financial statements. www.iasplus.com
3. Корягин М. В., Куцык П. А. Качество бухгалтерской отчетности как информационного продукта учетной системы. //Международный бухгалтерский учет. <http://fin-izdat.ru/journal/interbuh>
4. Bruce Pounder. Measuring Accounting quality.//Strategic finance. May, 2013
5. Левицкая С. А., Иващенко К. А. Accounting information resources: a theoretical aspect.//Proc.11th Sci.Conf. Winter readings dedicated to outstanding scientists in the field of Accounting, Analysis and Control. Zytomyr, Zytomyr State Technological University Publ., 2013,pp. 65-68
6. Соколов Я. В., Пятов М. Л. Достоверный и добросовестный взгляд на бухгалтерскую информацию // Бухгалтерский учет. 2007. № 5. С. 52-56.
7. Устинова Я. И. Концепция достоверного и добросовестного взгляда на бухгалтерскую информацию: российская теория и практика //Аудит и финансовый анализ. 2010. № 1. С. 32-40.
8. Попова Л. В. Основные теоретические принципы построения учетно-аналитической системы//Журнал "Финансовый менеджмент" – Основные теоретические принципы построения учетно-аналитической системы (finman.ru)
9. Nubia Isabel Diaz Ortega, Juan Manuel Villamizar Ramirez. The use of accounting information system as guidance for the decision-making in Cucuta SMEs.//Revista ESPACIOS. Vol. 38 (№ 41), 2017. Page. 2
10. A. Avlokulov, Z. Zufarova Directions of increasing the quality of accounting information//International Finance and Accounting, Vol.2021//6-1-2021

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil **IQTISODIYOT** va **TARAQQIYOT**

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.